

## О'ZBEK TILINING RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI

**Saidova Dildora Baxtiyarovna**

TDTU 3-son akademik litseyi

o'zbek tili va adabiyot fani

o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilining rivojlanish jarayoni, istiqboli, unga ta'sir etuvchi siyosiy, madaniy, ta'lim-ilmiy va texnologik omillar tahlil qilinadi. Til-millatning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbek tili men uchun dunyodagi eng boy, eng go'zal, eng barkamol til. O'zbek tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarruk. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek tili, til resurslari, xalqaro ommalashuvmillat, g'oya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, raqamli texnologiyalar.

Til-millatning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbek tilim men uchun dunyodagi eng boy, eng go'zal, eng barkamol til. O'zbek tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarruk. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishda, kamolotga erishuvida tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shuning uchun ham tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Suvsiz daryo bo'lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ona tili umummillat mulki, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi.

Globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya keng tarqalishi davrida tillarning xalqaro nufuzi ham muhim jihatlarga ega bo'ldi. Tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng. Men o'zbekman degan har bir inson o'z tili uchun qayg'urmog'i lozim. Dunyo tilshunoslari e'tirof etgan, soddalikda buyuk, boylikda ummon tilimiz bor. Uning ijodkorlari donishmand xalqimiz, elning ming yillar davomida yetishtirgan ulug' olimlari, shoirlari, farzandlari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar o'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr- XV asrda tilimiz himoyasiga o'tlanib, turkiy til imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining «Xamsa» kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Bu ulkan boylik bizniki, qonuniy meros egasi biz bo'lamiz.

Darhaqiqat, dunyodagi qadimiy va boy tillardan bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat ekani alohida ta'kidlab o'tilgan. Til-millat tafakkurining bebaho xazinasini sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilda har bir xalqning asrlar davomida bosib o'tgan yo'li, tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, madaniyati va san'ati, ma'naviyati o'zining yaqqol ifodasini topgan. Shu bois uni ko'ngil mulkining bebaho gavhari, duri kabi saqlaydilar, ko'kragini qalqon qilib himoyalaydilar ham. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Tilning vazifalari adoqsiz va u o'z zimmasiga yuklatilgan barcha vazifalarni bekamu ko'st ado etishga qodir.

So'ngi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida islohatlarda ona tilimizga hurmat, uni rivojlantirish, davlat idoralarida aynan ona tilida ish yuritish bilan bog'liq jiddiy masala ko'pchilikni quvontirdi. O'zbek tilini o'rganish, uni chuqur tadbiq etish borasida olib borilayotgan ilmiy ishlar, yozilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar, lug'atlar bunga yorqin misoldir. Uning ichki imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Undan o'rinli foydalanish, tilning sofligi, tabiiyligi uchun kurashish,

og'zaki va yozma nutqda til me'yorlariga to'liq rioya qilish, ona tilining buloqdek musaffoligini, tarovatini saqlab qolish barchamizning sharaflari va ayni chog'da muqaddas burchimizdir. Til yashasa-millat yashaydi. Agar biz o'z ona tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi.

Ona tilim, jon tilim, qalbim seni ardoqlar,  
Senga toshlar otilsa, yuragimda titroqlar.  
Beshigida ona deb uig'aysin chaqaloqlar,  
O'zbek bo'lib o'zbekcha so'zlashaylik odamlar.

“Til-millat ruhi, til-millat ko'zgusi”, “Til-millat faxri” va shunga o'xshash tilimiz haqida iftixor tuyg'usi bilan aytilgan maqollar, yetti yoshdan, yetmish yoshgacha bo'lgan o'zbek xalqimizga yod bo'lib ketgan. Lekin biz hozirgi globallashtirish davrida shu maqollarga amal qilib yashayapmizmi yoki faoliyat ko'rsatyapmizmi? Qadim zamonlardan beri turkiy xalqlar tillari orasida minglab sinovlardan o'tib, dovonlardan oshib, sayqallanib, jilolanib kelgan o'zbek tilining butun dunyo tillari orasida tahsinlarga sazovor o'tmishi bor. Xususan, O'rxun –Enasoy yodgorliklaridan tortib, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'otit turk”igacha, Alisher Navoiyning “Xamsa”si-yu “Muhokamat ul-lug'atayn”idan Z. M. Boburning “Boburnoma”ga qadar, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”-u Cho'lponning “Kecha va kunduz”idan tortib, Erkin Vohidovning “So'z latofati” gacha.... Bunga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Bularning barini o'qib, ona tilimizga bo'lgan mehr-muhabbatining yanada ulg'ayishi tabiiy, albatta. Lekin bugun bu haqida ilm kishilarigina qayg'urayotganga, bosh qotirayotganga o'xshaydi.

Millatimizning bebaho boyligi, hurligimizning timsollaridan biri bo'lgan davlat tilini buzib qo'llashga, tilimizdagi iboralar ma'nosini anglatmasdan ishlatishga hech kimning haqqi yo'q.

Xulosa shuki, o'zbek tilining xalqaro miqyosida ommalashuvi- bu murakkab, bir qancha omillar kesishmasi bo'lib, ularni kompleks ravishda qo'llash zarur. Shu o'rinda Paustovskiyning bir gapini yodimga keldi: “O'z Vatanninga bo'lgan muhabbat, o'z

ona tilingga bo‘lgan muhabbatingdan boshlanadi”. Bugun har bir inson o‘z mo‘tabarona tilini sevsa, ardoqlasa bu - uning o‘z muqaddas Vataniga bo‘lgan xizmati, uning oldidagi sharaflı burchini ado qilgani emasmi? Bugun barchamiz shu Vatanga bo‘lgan muhabbatimizni qalblarimizda saqlabgina qolmay, uni ilm-u a‘molimizga, xatti-harakatimizga ko‘chirishimiz kerak bo‘lgan palla emasmi? Shu muqaddas burchni ado etishda barchamiz qo‘lni qo‘lga berib, yelkama- yelka bo‘lib birlashsak, albatta, buning uddasidan chiqa olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Sirojiddin Sayyid So‘z yo‘li Ikki jildlik tanlangan asarlar 2-jild. –T.:Sharq,2008
2. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida.  
Kitobda: Bobir Bobirnoma. -T.:1960
- 3.E.Ochilov.Zahiriddin Muhammad Bobur. T.:O‘zbekiston ,2012
- 4.Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: 1993.